



**“O‘ZBEKISTONDA STATISTIK TIZIMNING BOSQICHMA-BOSQICH
SHAKLLANISHI VA MODERNIZATSIYASI”**

A. Aysachev

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti “Mutaxassislik, ijtimoiy
– gumanitar va aniq fanlar“ kafedrasi dotsent i.f.f.d., (PhD)

S. Saparmatova

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Andijon fakulteti “Bank ishi va audit
yo‘nalishi” 2-kurs talabasi

**«ЭТАПЫ ФОРМИРОВАНИЯ И МОДЕРНИЗАЦИИ
СТАТИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН»**

А. Айсачев - доцент кафедры «Специальные, социально-гуманитарные и
точные науки» Андижанского факультета Ташкентского государственного
экономического университета,
и.ф.ф.д., (PhD)

С. Сапарматова

студентка 2-го курса направления «Банковское дело и аудит» Андижанского
факультета Ташкентского государственного экономического университета

**"STAGES OF DEVELOPMENT AND MODERNIZATION OF THE
STATISTICAL SYSTEM IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN"**

A. Aysachev

B. Associate Professor, Department of “Specialized, Social-Humanitarian and
Exact Sciences,” Andijan Faculty of Tashkent State University of
Economics, PhD in Economics

S. Saparmatova

2nd-year student, “Banking and Auditing” program,
Andijan Faculty of Tashkent State University of Economics



Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda statistik tizimning mustaqillikdan keyingi davrda shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. 1992-yilda “O‘zqistikbolstat” Davlat qo‘mitasining tashkil etilishi, keyinchalik Milliy hisoblar tizimining joriy qilinishi, narxlar, mehnat, moliya va savdo statistikalarining qayta shakllantirilishi hamda yagona korxona registrining yaratilishi mamlakatda statistik boshqaruvning yangi tizimini shakllantirganligi yoritiladi. Shuningdek, 2017–2021-yillarda statistika faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturining amalga oshirilishi, xalqaro standartlar va tasniflagichlar asosida statistik ko‘rsatkichlarni shakllantirish jarayoni ko‘rib chiqiladi. Maqolada milliy statistikaning xalqaro tizimga integratsiyalashuvi, ochiqlik va shaffoflik tamoyillarini joriy etish orqali davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: statistika, mustaqillik, milliy hisoblar tizimi, xalqaro standartlar, davlat boshqaruvi, shaffoflik.

Аннотация

В данной статье анализируются этапы становления и развития статистической системы Узбекистана в постсоветский период. Рассматривается создание в 1992 году Государственного комитета «УзкИстикболстат», последующее внедрение Системы национальных счетов, реформирование статистики цен, труда, финансов и торговли, а также формирование единого регистра предприятий, что заложило основы новой системы статистического управления в стране. Кроме того, освещается реализация программы мероприятий по совершенствованию статистической деятельности в 2017–2021 годах, процесс формирования статистических показателей на основе международных стандартов и классификаторов. В статье также анализируется интеграция национальной статистики в международную систему, а также значение внедрения принципов открытости и прозрачности для повышения эффективности государственного управления.



Ключевые слова: статистика, независимость, система национальных счетов, международные стандарты, государственное управление, прозрачность.

Annotation

This article analyzes the stages of formation and development of Uzbekistan's statistical system in the post-independence period. It examines the establishment of the State Committee "Uzqistiqbolstat" in 1992, the subsequent introduction of the System of National Accounts, the restructuring of price, labor, finance, and trade statistics, as well as the creation of a unified enterprise register, which laid the foundation for a new system of statistical management in the country. Furthermore, the article highlights the implementation of the 2017–2021 program of measures to improve statistical activities, the process of developing statistical indicators based on international standards and classifications. The paper also analyzes the integration of national statistics into the international system and the importance of introducing the principles of openness and transparency in enhancing the effectiveness of public administration.

Keywords: statistics, independence, system of national accounts, international standards, public administration, transparency.

Kirish

O'zbekistonda statistika tizimi mustaqillik yillarida tubdan yangilandi va milliy rivojlanish strategiyasiga mos holda takomillashtirildi. Davlat statistika qo'mitasi mamlakat miqyosida iqtisodiy o'sish sur'atlari, sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, aholining turmush darajasi, bandlik va demografik ko'rsatkichlar kabi asosiy jarayonlarni muntazam ravishda kuzatib boradi. Bu ma'lumotlar asosida hukumat qisqa va uzoq muddatli rejalashtirishni amalga oshiradi.

Asosiy qism

Statistika – bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar va hodisalarni miqdoriy jihatdan o'rganadigan fan bo'lib, jamiyat taraqqiyoti darajasini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati shundan iboratki, statistik ma'lumotlar orqali

davlat iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning natijalarini kuzatadi, mavjud muammolarni aniqlaydi va ularni hal etish uchun ilmiy asoslangan qarorlar qabul qiladi. Davlat boshqaruvida statistik ma'lumotlar quyidagi vazifalarni bajaradi: Rejalashtirish va prognozlash – iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishini belgilashda asosiy ko'rsatkichlar statistik tahlil asosida shakllantiriladi. Nazorat va monitoring – qabul qilingan qarorlarning amalda qay darajada bajarilayotganini kuzatish uchun statistik ma'lumotlar muhim manba bo'lib xizmat qiladi.[1]

O'zbekistonda statistik tizimning shakllanish va modernizatsiya bosqichlari[2]

Bosqich	Yil / davr	Asosiy islohotlar va voqealar	Ahamiyati
Sovet davrigacha	Mustaqillikkacha	Rossiya imperiyasi tarkibida statistika, ro'yxatlar va dastlabki hisoblar	Statistika uchun tashkiliy asoslar yaratildi
Sovet davri (1917–1991)	1917–1930 → 1930-yillar → Urushdan keyingi davr	Xalq xo'jaligi balansi tuzildi; indeks nazariyasi rivojlandi; ma'muriy-buyruqbozlik natijasida sekinlashdi; urushdan keyin ishlab chiqarish kuchlarini hisoblash kuchaydi	Markazlashgan statistika tizimi shakllandi
Mustaqillikning dastlabki bosqichi	1992	Prezident farmoni bilan "O'zqistiqlolstat" Davlat qo'mitasi tuzildi	Milliy statistika tizimining asosiy poydevori qo'yildi
Islohotlar davri	1994–1996	Vazirlar Mahkamasining 433-son qarori, xalqaro standartlarga o'tish, Milliy hisoblar tizimi (MHT) joriy etilishi	Bozor iqtisodiyotiga mos milliy hisobchilik modeli shakllandi
Optimallashtirish davri	1997	"O'zqistiqlolstat" Davlat qo'mitasi Mikroiqtisodiyot va statistika vazirligiga aylantirildi	Statistika tizimini davlat boshqaruvi bilan integratsiya qilish
Modernizatsiya davri	2017–2021	Statistika tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari dasturi amalga oshirildi	Haqqoniylik, ochiqlik va shaffoflik ta'minlandi; xalqaro standartlarga moslashtirildi
Hozirgi bosqich	2021 yildan hozirgacha	Milliy statistikaning xalqaro tizimga integratsiyasi, elektron axborot tizimlari	Davlat boshqaruvi samaradorligi va xalqaro hamkorlik kengaydi



Xalqaro taqqoslash – xalqaro tashkilotlarga taqdim etiladigan statistik hisobotlar orqali O‘zbekiston iqtisodiyoti boshqa mamlakatlar bilan solishtiriladi. Ochiqlik va shaffoflik – aholiga, tadbirkorlik subyektlariga va investorlar uchun statistik axborot taqdim etilishi ishonchni oshiradi hamda davlat siyosatini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, statistika O‘zbekistonda davlat boshqaruvi tizimining ajralmas qismi bo‘lib, mamlakat taraqqiyotini ilmiy asosda boshqarish va barqaror rivojlanishga erishishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida statistika uzoq va murakkab, mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy rivojlanishning xususiyatlariga bog‘liq yo‘lni bosib o‘tdi. Sovet davrigacha bo‘lgan vaqtda O‘zbekiston statistikasi Rossiya imperiyasi tarkibida davlat statistikasini shakllantirish va uning tashkiliy asoslarini yaratish, tashkiliy-uslubiy ishlarini takomillashtirish ishlari bilan xarakterlanadi. Sovet statistikasining dastlabki bosqichi (1917–1930 y.)da statistika uslubiyotining rivoji jadallashib, xorijiy statistika yutuqlaridan keng foydalanishga harakatlar bo‘lgan. Maxsus uyushtirilgan ro‘yxatlar va tadqiqotlar o‘tkazilgan holda birinchi marta xalq xo‘jaligi balansi tuzilgan.

Statistikadagi keyingi bosqichi 1930-yillarda ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining paydo bo‘lishi va ommaviy qatag‘onlar natijasida ancha susaydi. Ikkinchi jahon urushidan keyin statistikani roli sezilarli darajada oshdi. U mehnat va moddiy resurslarni tezkor hisobga olish, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish kabi muhim vazifalarni bajardi. Bu davrda iqtisodiyot va statistikada balans ishlanmalari kengaydi, indeks nazariyasi chuqurlashtirildi, iqtisodiy-matematik model va usullarni ishlab chiqish hamda ulardan foydalanish kengaydi. O‘sha davrdagi statistikaniing ijobiy tomoni sifatida statistika uslubiyotining yagonaligi, texnik va dasturiy vositalarning bir xil andozadaligi natijasida kichik hajmdagi investitsion xarajatlar bilan hisoblash tizimi faoliyatining samaradorligining ta‘minlanganligini keltirish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, barcha iqtisodiy munosabatlar tizimida tub o‘zgarishlarga qaratilgan iqtisodiy islohotlar statistika tizimini jiddiy takomillashtirish, barcha hisob va statistika tizimida kompleks takomillashtirishni talab qilar edi.

Mustaqil O‘zbekiston statistika tizimini qayta qurishda boshlang‘ich punkt bo‘lib 1992-yil hisoblanadi. Shu yili iqtisodiyot talabidan hisob va statistikani orqada



qolayotganligi ayniqsa kuchli namoyon bo'lgan edi. Bu bosqichda qayta qurishning asosiy yo'nalishi statistika va prognozlash idoralari ishlari orasidagi o'zaro aloqani ta'minlashga qaratildi. Ushbu maqsadda 1992-yilning 5-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Vazirlar Mahkamasi huzurida Istiqbolni belgilash va statistika Davlat qo'mitasini tuzish to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra "O'zqistiqlolstat" Davlat qo'mitasi tuzildi. Farmonga binoan O'zbekiston rivojlanish istiqbollari belgilash qo'mitasi va O'zbekiston Davlat statistika qo'mitasibirlashtirildi.

"O'zqistiqlolstat" tarkibida istiqbolni belgilash va statistika hududiy boshqarmalari, Bosh hisoblash markazi, Iqtisodiyot va statistika ilmiy-tekshirish instituti, Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish markazi tashkil qilindi. Joylarda istiqbolni belgilash va statistika idoralari obro'sini oshirish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va statistika qo'mitasi, Toshkent shahri va viloyatlarda istiqbolni belgilash va statistika bosh boshqarmalari, tuman va shaharlarda istiqbolni belgilash va statistika bo'limlari tuzildi. Iqtisodiy munosabatlar tizimini qayta qurishdagi iqtisodiy islohotlar, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish mamlakatda statistika va hisob tizimini tubdan isloh qilishni talab qilar edi. Statistika tizimining xalqaro andozalarga o'tkazish va islohotlarning ko'p maqsadli yo'nalishlari masalalarining ko'lamliligi va murakkabligini uni amalga oshirishda davlat ishtirokini zarurligini talab qildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustda 433-sonli qarori bilan 1996-yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan yotda qo'llaniladigan statistika va hisob tizimiga o'tish to'g'risidagi Davlat dastur O'zbekiston Respublikasini xalqaro amali qabul qilindi. Ushbu Dasturini amalga oshirish ishlarida ko'pgina davlat idoralari, yetakchi iqtisodiy va boshqa ilmiy muassasalar hamda OTMlari qatnashgan. Bir maqsadga yo'naltirilgan va bosqichma-bosqich Dasturining hayotga tatbiq qilinishii quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi milliy hisobchilik yangi konseptual makroiqtisodiy modelini – Milliy hisoblar tizimi (MHT) metodologiyasini o'zlashtirish boshlandi;narxlar, mehnat, tashqi va ichki savdo statistikasi tubdan yangidan tashkil qilindi, statistikaning moliya, byudjet va bank bo'limlari qaytadan shakllantirildi, tarmoqlar statistikasi ko'rsatkichlari aniqlashtirildi, institutsional



o'zgarishlar statistikasini yaratish bo'yicha ishlar boshlandi, MHT sxemasi bo'yicha tarmoqlararo balansni ishlab chiqish boshlab yuborildi, yagona korxona tashkilotlarining davlat registrini shakllantirish uchun tashkiliy va me'yoriy-huquqiy asoslar yaratildi va statistikaning axborot-hisoblash tizimi takomillashtirildi. Eng muhim natija sifatida davlat statistikasi idoralarining xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarining yangi sifat darajasiga ko'tarilganligini qayd qilish mumkin.

Mamlakatda bozor iqtisodiyoti islohotlarining yanada rivojlanishi va chuqurlashuvi, turli mulkchilik shakllari va iqtisodiyot sohalarining holati va imkoniyatlari to'g'risida haqqoniy va aniq ma'lumotlarga tayanilgan holda davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, shuningdek boshqaruv qarorlarini baholash zaruriyati va statistikani isloh qilish Dasturining amalga oshirilishi natijalari mamlakat iqtisodiy va statistika tizimlari faoliyatini yanada takomillashtirish, statistika oldida turgan muammolarni yechish uchun ularning tashkiliy tizimlarini optimallashtirish masalalarini kun tartibiga qo'ydi. Ushbu masalalarni hal qilish maqsadida 1997-yil 15-mayida "O'zistiqlolstat" Davlat qo'mitasi Mikroiqtisodiyot va ststistika vazirligiga aylantirildi.

Xulosa

qilib aytganda, O'zbekistonda statistik tizimning shakllanishi va modernizatsiyasi mamlakatning mustaqillikdan keyingi iqtisodiy rivojlanish jarayonida muhim ahamiyat kasb etdi. 1992-yilda "O'zqistiqlolstat" Davlat qo'mitasining tashkil topishi, keyinchalik Milliy hisoblar tizimining joriy etilishi hamda xalqaro standartlarga moslashtirilgan tasniflagichlarning qo'llanilishi statistika sohasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi. Ayniqsa, 2017–2021-yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar dasturi natijasida statistik axborotlarning haqqoniyligi, ochiqqligi va shaffofligi ta'minlandi.

Bu esa nafaqat davlat boshqaruvi samaradorligini oshirdi, balki xalqaro hamkorlikning kengayishiga ham xizmat qildi. Umuman olganda, zamonaviy statistika tizimi mamlakatda iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish, kelgusini aniq prognozlash hamda islohotlarning natijadorligini baholashda muhim ilmiy-amaliy vosita sifatida shakllandi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shodiyev H., Habibullayev I. Statistika. – Toshkent: “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2021.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari – <https://stat.uz>
3. Karimov A. Iqtisodiy tahlil va prognozlash asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida statistika tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. – Toshkent, 2017.
5. Айсачев Абдулфотих Абдулфаизович. (2024). ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНАЛЬНЫХ ТЕНДЕНЦИЙ РАЗВИТИЯ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА В РАЗРЕЗЕ ТЕРРИТОРИИ РЕГИОНА. Web of Discoveries: Журнал анализа и изобретений, 2 (6), 119–127. Получено с <https://webofjournals.com/index.php/3/article/view/1618>
6. Айсачев, А. (2021). Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне. Экономика и инновационные технологии, (4), 197–208. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11938
7. AA Aysachev, M Xonboboyeva. QISHLOQ XO‘JALIGI MAXSULOTLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA IQTISODIY SAMARADORLIKKA ERISHISHNING BA‘ZI MASALALARI. (2024). International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 72-77. <https://econfseries.com/index.php/5/article/view/77>